Philology Matters / ISSN: 1994 – 4233 / E-ISSN: 2181–1237
Uzbekistan State World Languages University
2026 Vol. 1 No. M 1
LINGUISTICS
DOI: 10.36078/987656157

Azimjon Ergashev

O‘zbekiston davlat jahon tillari universiteti
Toshkent, O‘zbekiston
E-mail: azimjonergashev1013@gmail.com
ORCID: https://orcid.org/0009-0001-5717-949X

Ilmiy rahbar: Shoxida Abdullayeva – f.f.d.

MOLIYAVIY-IQTISODIY MATNLAR TARJIMASIDA EKSTRALINGVISTIK OMILLAR VA ULARNING TARJIMA JARAYONIGA TA’SIRI

Annotatsiya: Mazkur maqolada moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayonida lingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro bog‘liqligi hamda ularning tarjima sifatiga ko‘rsatadigan ta’siri tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi moliyaviy-iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda terminologik ekvivalentlikni ta’minlash, sintaktik moslikni saqlash va pragmatik muvofiqlikni hisobga olish masalalarini ilmiy jihatdan yoritishdan iborat. Maqolaning vazifalari lingvistik omillar sifatida leksik-semantik tuzilma, terminologiya, sintaktik konstruksiyalar va stilistik xususiyatlarni ko‘rib chiqish hamda ekstralingvistik omillar — madaniy, iqtisodiy, huquqiy hamda sotsiolingvistik kontekstlarning tarjima jarayonidagi o‘rnini tahlil qilish belgilangan. Tadqiqotda tavsifiy, qiyosiy, leksik-semantik, kontekstual (diskursiv), pragmatik, terminologik, funksional hamda misollar asosida tahlil metodlaridan foydalanildi. Natijalar shuni ko‘rsatdiki, auditoriya ehtiyojlari va matn janrining tarjima strategiyasiga ta’siri ko‘rsatib berildi hamda moliyaviy-iqtisodiy matnlarning muvaffaqiyatli tarjimasi nafaqat lingvistik bilimlarga, balki tarjimonning sohaviy bilimlari, iqtisodiy kontekstni anglash qobiliyati hamda kommunikativ maqsadni to‘g‘ri talqin qilishiga ham bog‘liq ekanligi aniqlandi. Tadqiqot xulosasi sifatida moliyaviy-iqtisodiy matnlar tarjimasida lingvistik va ekstralingvistik yondashuvlarning uyg‘unligi tarjima sifatini oshirishda muhim ahamiyat kasb etishini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: Moliyaviy-iqtisodiy tarjima, lingvistik omillar, ekstralingvistik omillar, terminologik ekvivalentlik, pragmatik moslik, iqtisodiy terminologiya, tarjima strategiyasi, madaniy kontekst, huquqiy kontekst.

Azimjon Ergashev

Uzbekistan State World Languages University
Tashkent, Uzbekistan

Scientific supervisor: Shokhida Abdullayeva – DSc

EXTRALINGUISTIC FACTORS IN THE TRANSLATION OF FINANCIAL AND ECONOMIC TEXTS AND THEIR IMPACT ON THE TRANSLATION PROCESS

Abstract: This article analyzes the interrelation of the translation process of linguistic and extractive texts and their impact on the quality of file translation in the process of translating industrial-economic texts. The aim of the article is to scientifically correct the problems of ensuring equivalence in terminology, maintaining syntactic compatibility and obtaining pragmatic means in

the translation of industrial-economic texts. The tools of the article are linguistic-se and consideration of lexical structure, syntactic constructions and stylistic production as terms - to analyze the role of cultural, economic, legal sociolinguistic contexts in the translation process. The study employed descriptive, comparative, lexical-semantic, contextual (discourse), pragmatic, terminological, functional, and example-based analysis methods. The results show that the auditor indicates that the influence of the genre of the text on the translation is shown, and the translation of economic texts depends not only on linguistic knowledge, but also on the translator's knowledge of the field, understanding of the economic context, and the correct interpretation of the communicative purpose. To show that the harmony of linguistic and extralinguistic structures in the translation of industrial engineering and economic texts is of great importance for the quality of the translation.

Keywords: Financial-economic translation, linguistic factors, extralinguistic factors, terminological equivalence, pragmatic compatibility, economic terminology, translation strategy, cultural context, legal context.

Азимжон Эргашев

Узбекский государственный университет мировых языков
Ташкент, Узбекистан

Научный руководитель: Шохида Абдуллаева – д.ф.н.

ЭКСТРАЛИНГВИСТИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ В ПЕРЕВОДЕ ФИНАНСОВЫХ И ЭКОНОМИЧЕСКИХ ТЕКСТОВ И ИХ ВЛИЯНИЕ НА ПРОЦЕСС ПЕРЕВОДА

Аннотация: В данной статье анализируется взаимосвязь процесса перевода лингвистических и экстрактивных текстов и их влияние на качество файлового перевода в процессе перевода промышленно-экономических текстов. Цель статьи – научное решение проблем обеспечения эквивалентности терминологии, поддержания синтаксической совместимости и получения прагматических средств при переводе промышленно-экономических текстов. Инструментами статьи являются лингвистическое рассмотрение и учет лексической структуры, синтаксических конструкций и стилистического производства как терминов – анализ роли культурного, экономического, правового и социолингвистического контекстов в процессе перевода. В исследовании использованы описательный, сравнительный, лексико-семантический, контекстуальный (дискурсивный), прагматический, терминологический, функциональный и метод анализа на основе примеров. Результаты показывают, что аудитор указывает на проявление влияния жанра текста на перевод, и что перевод экономических текстов зависит не только от лингвистических знаний, но и от знаний переводчика в данной области, понимания экономического контекста и правильной интерпретации коммуникативной цели. Цель исследования – показать, что гармония языковых и экстралингвистических структур при переводе текстов по промышленной инженерии и экономике имеет большое значение для качества перевода.

Ключевые слова: Финансово-экономический перевод, лингвистические факторы, экстралингвистические факторы, терминологическая эквивалентность, прагматическая совместимость, экономическая терминология, стратегия перевода, культурный контекст, правовой контекст.

KIRISH

Moliyaviy-iqtisodiy matnlarning tarjimasi jarayonida tilshunoslik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro bog‘liqligi alohida ahamiyat kasb etadi. Tarjima jarayoni faqat tilning semantik va gramatik qoidalariga tayanish bilan cheklanib qolmaydi, balki matnning asl mazmunini to‘liq va aniq yetkazish uchun undagi madaniy, ijti-

moiy hamda kontekstual omillarni ham chuqur hisobga olishni taqazo etadi. Bu jarayonda tarjimonning asosiy e'tibori matnni manba tilidagi matnning ma'no va maqsadini saqlab qolish bilan birga, maqsad tilida (MT) auditoriyaga moslashtirishga qaratiladi. Aynan ekstralingvistik omillar, ya'ni madaniyat, iqtisodiy muhit, soha terminologiyasi va boshqa tilga oid bo'lmagan jihatlar tarjima sifatiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Tarjima jarayonining muvaffaqiyati faqat tarjimonning lingvistik kompetensiyasi bilan belgilanmaydi, balki uning ekstralingvistik bilimlari, kasbiy tajribasi hamda matnga oid kontekstni anglash darajasiga ham bevosita bog'liq bo'ladi.

N.K. Garbovskiyning fikricha, asl matn "har qanday tarjima jarayonining asosi bo'lib, unda tarjimon tomonidan qayta talqin qilinishi kerak bo'lgan barcha zaruriy ma'lumotlar mujassamdir" [Garbovskiy, 2007]. Shu bois tarjimon matnga faqat belgilar majmuasi sifatida emas balki muallif bilan auditoriya o'rtasida mazmunli va maqsadga yo'naltirilgan kommunikatsiyani ta'minlovchi vosita sifatida yondashishi lozim.

Bu yondashuv matnni ikki xil tahlil qilishni talab qiladi: biri lingvistik tahlil, ikkinchisi esa diskursiv tahlildir. Lingvistik omillar, masalan, leksik-semantik tuzilma va matn ritmi kabi jihatlar, tarjimon tomonidan matnni o'rganish jarayonida e'tiborga olinadi. Bunday omillar K. Nord tomonidan "intratekstual omillar" (intratextual factors) [Nord, 2005], A. Almanna tomonidan esa "tekstga bog'liq cheklovlar" (text-driven constraints) deb atalgan [Almanna, 2013]. Ekstralingvistik omillar, ya'ni "matndan tashqaridagi" omillar, kommunikatsiya jarayonining asosiy savollariga javob izlash orqali o'rganiladi. Bu savollarni G.D. Lassvell quyidagicha aniqlaydi: *kim? nima deydi? qanday vosita orqali? kimga? qanday ta'sir bilan?* Ekstralingvistik omillarga muallif niyati, maqsadi, motivlari, auditoriya xususiyatlari, matn yaratilgan vaqt va joy, shuningdek, uni yetkazish usuli (og'zaki yoki yozma) kiradi [Lasswell 1971].

Tarjimashunoslikda funksional yondashuv matnning vazifaviy yo'naltirilganligi, janr-uslub xususiyatlari, kommunikativ maqsad, madaniy moslashuv, konnotativ mazmun va pragmatik sodiqlikni ta'minlashga yo'naltirilgan kompleks yondashuv sifatida talqin etiladi. Bu konsepsiya rasmiy, huquqiy, ilmiy va ixtisoslashgan matnlar tarjimasida funksional moslik, nutq vazifalari, matn tipologiyasi, janrga mos stilistik struktura va pragmatik transformatsiyalarning uzviyligini ta'minlaydi. Sh.S. Safarov [Safarov, 2016], P.A. Turaboyeva [Turaboyeva, 1979], Sh.Iskandarova [Iskandarova, 1999], O.Ya.Yusupov [Yusupov, 2020], M. Ganiyeva [Ganiyeva, 2024], B. Hatim, I. Mason [Hatim, Mason, 1990], C.Nord [Nord, 1993], S.L. Halverson [Halverson, 1997], C.Schäffner [Schäffner, 1999] kabi olimlarning tadqiqotlarida funksional moslik, matn tipologiyasi va stilistik-pragmatik jihatlarning tarjima sifati bilan bog'liqligi yoritilgan.

H. Vermeerning Skopos nazariyasiga ko'ra, tarjimaning muvaffaqiyati matnning tarjima auditoriyasi hamda kommunikativ kontekstga mosligiga bog'liq. M. Halliday funksional grammatika yondashuvi orqali rasmiy matnlarning uslubiy xususiyatlarini shakllantirishda grammatik va semantik tuzilmalarning muhim rol o'ynashini ta'kidlaydi [Vermeer 1989]. K. Reissning funksional tarjima nazariyasi esa matn turiga qarab tarjima strategiyasini tanlash zarurligini ko'rsatadi. Moliyaviy-iqtisodiy matnlar odatda informativ, ekspressiv va operativ xususiyatlarga ega bo'lib, ularning har biri o'z kommunikativ vazifasiga muvofiq tarzda tarjima qilinishi lozim. K. Reissning funksional tarjima nazariyasiga ko'ra, bunday holatlarda tarjimon matnning kommunikativ maqsadini saqlagan holda, uni qabul qiluvchi madaniyatga mos shaklda yetkazishi kerak [Reiss, 1989]. Y. Nida esa madaniy moslashuvni tarjimaning muhim tarkibiy qismi sifatida baholab, tarjimon matnni mo'ljallangan madaniy muhit kontekstida qayta talqin qilishi zarurligini ta'kidlaydi. [Nida, 1964].

TADQIQOT METODLARI

Mazkur tadqiqotda bir qator lingvistik va tarjimashunoslik metodlaridan foydalanildi. Jumladan, tavsifiy metod yordamida moliyaviy-iqtisodiy matnlarning lingvistik va ekstralingvistik xususiyatlari yoritildi. Qiyosiy metod orqali ingliz va o'zbek tillaridagi tarjima birliklari o'zaro taqqoslandi.

Leksik-semantik tahlil asosida terminlar va iboralarning ma'nosi ochib berildi, kontekstual (diskursiv) tahlil orqali esa ularning iqtisodiy,

madaniy va huquqiy kontekstdagi qo‘llanishi o‘rganildi.

Shuningdek, pragmatik tahlil yordamida tarjimaning auditoriyaga ta’siri va kommunikativ samaradorligi baholandi. Terminologik tahlil orqali moliyaviy-iqtisodiy terminlarning mos ekvivalentlari aniqlanib, funksional yondashuv asosida tarjima strategiyalari ishlab chiqildi. Tadqiqot davomida misollar asosida tahlil usulidan keng foydalanildi.

NATIJALAR

Moliyaviy-iqtisodiy matnlarning tarjima qilish murakkab va ko‘p qirrali jarayon bo‘lib, unda lingvistik va ekstralingvistik omillarning o‘zaro uyg‘unligi tarjimaning mazmunan aniqligi va kommunikativ samaradorligini belgilaydi. Lingvistik jihatlar leksik tanlov, sintaktik tuzilma va semantik aniqlikni qamrab olib matnning strukturaviy yaxlitligi hamda terminologik mosligini ta’minlaydi. Ekstralingvistik omillar esa madaniy, iqtisodiy, huquqiy, sotsiolingvistik va progmatik kontekstlar bilan bog‘liq holda, tarjimaning xalqaro standartlarga hamda mo‘ljallangan auditoriya ehtiyojlariga mos kelishiga xizmat qiladi.

Moliyaviy - iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda lingvistik tahlil terminlarning aniq va standart ekvivalentini tanlashga, sintaktik moslik esa matnning rasmiy uslubda bo‘lishiga xizmat qiladi. Masalan, *“The company’s financial performance exceeded expectations*. Tarjimasi: *“Kompaniyaning Moliyaviy-iqtisodiy natijalari kutilganidan yuqori bo‘ldi”* deb tarjima qilinadi. Bunda *“financial performance” “Moliyaviy-iqtisodiy natijalar”* deb moslashtiriladi, chunki so‘zma-so‘z *“Moliyaviy-iqtisodiy faoliyat”* pragmatik jihatdan noto‘g‘ri bo‘lar edi. Ta’kidlash joizki, bu kabi matnlar tarjimasida *leksik moslikdan* tashqari pragmatik va mantiqiy moslik ham muhim. Iqtisodiy terminlar o‘zbek tiliga tarjima qilinganda xalqaro standartlarga muvofiq ekvivalent tanlash yoki ba’zan izohli tarjima berish talab etiladi. Misol: *“The company has improved its cash flow management to avoid liquidity risks”*. Tarjimasi: *“Kompaniya likvidlik xavfini oldini olish uchun pul oqimini boshqarishni yaxshiladi”*. Jumladan, *“Cash flow management”* termini o‘zbek tiliga *“pul oqimini boshqarish”* deb tarjima qilinadi. Biroq ba’zi hollarda *“naqd pul harakati boshqaruvi”* yoki *“Moliyaviy-iqtisodiy oqimlarni boshqarish”* kabi variantlar ham ishlatilishi mumkin. *“Liquidity risks”* so‘z birikmasi so‘zma-so‘z *“likvidlik xatarlari”* deb tarjima qilinsa, u tabiiy eshitilmaydi. Shu sababli *“likvidlik xavfi”* kabi iqtisodiy termin sifatida mos ekvivalent tanlangan. Agar tushunchani yanada soddalashtirish talab qilinsa, *“Kompaniya Moliyaviy-iqtisodiy barqarorlikni ta’minlash uchun pul oqimini samarali boshqara boshladi”* kabi variant ishlatilishi mumkin. Bu misol pragmatik moslik, iqtisodiy terminlarning to‘g‘ri tanlanishi va kontekstga qarab tarjima soddalashtirilishi zarurligini ko‘rsatadi.

Moliyaviy - iqtisodiy matnlarning *sintaktik* tuzilishi ko‘p komponentli, qat’iy rasmiy va murakkab jumlalardan iborat bo‘lishi mumkin. Ingliz tilida passiv shakllar va murakkab terminologik konstruksiyalar keng qo‘llaniladi, o‘zbek tilida esa faol gaplar va tabiiy tuzilmalarga moslashtirish talab etiladi. Misol: *“The investment report was approved by the board of directors”* (so‘zma-so‘z tarjima, to‘g‘ri emas): *“Investitsiya hisobotiga direktorlar kengashi tomonidan tasdiq berildi”* (moslashtirilgan): *“Direktorlar kengashi investitsiya hisobotini tasdiqladi”.* Bu tarjimada passiv tuzilma (*was approved*) o‘zbek tilida faol shaklga o‘tkazildi, chunki rasmiy matnlarda ham tabiiy va tushunarli tuzilma muhim. Xalqaro Moliyaviy-iqtisodiy terminologiyada *“investment report”* keng ishlatilgani uchun uning sinonimi *“investitsiya hisoboti”* aniqroq tanlandi.

Moliyaviy - iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda nafaqat leksik ekvivalentlik, balki pragmatik muvofiqlik ham muhim ahamiyat kasb etadi. Xalqaro iqtisodiy terminologiya ba’zan so‘zma-so‘z tarjima qilinganda semantik nomuvofiqlikka olib kelishi mumkin. Shu sababli tarjimada iqtisodiy kontekst va tarjima matni auditoriyasining bilim darajasiga moslashish talab etiladi. Misol: *“The company has a strong capital buffer to withstand market volatility* (so‘zma-so‘z, noto‘g‘ri): *“Kompaniyada bozor beqarorligiga qarshi turish uchun kuchli kapital bufer mavjud”* (to‘g‘ri tarjima): *“Kompaniya bozor tebranishlariga bardosh berish uchun yetarli kapital zaxiralariga ega” – “kapital bufer”* so‘z bi-

rikmasi moliyaviy-iqtisodiy kontekstdagi muhim terminlardan biri bo‘lib, uni so‘zma-so‘z tarjima qilish (*“kapital bufer”*) o‘zbek tilida tabiiy emas va tushunarsiz bo‘lib qoladi. Ma’noni aniq yetkazish uchun *“kapital zaxiralari”* kabi mos ekvivalent tanlandi, bu ibora auditoriya uchun tushunarli va iqtisodiy kontekstga mos keladi. *“Market volatility”* so‘z birikmasi esa *“bozor tebranishlari”* deb tarjima qilinib, terminning mantiqiy va pragmatik mosligi saqlangan. Ushbu misol moliyaviy - iqtisodiy matnlarning semantik va pragmatik moslashuv asosida tarjima qilinishining ahamiyatini ko‘rsatadi. Terminlarni shunchaki lug‘aviy tarjima qilish emas, balki iqtisodiy tushunchalarning mantiqiy talqinini ta’minlash tarjimaning aniqligi va xalqaro standartlarga mosligini oshiradi. Moliyaviy - iqtisodiy matnlarni tarjima qilish jarayoni nafaqat lingvistik moslikni, balki matnning kontekstual, madaniy va iqtisodiy muhitga moslashuvini ham talab qiladi.

MUNOZARA

Ekstralingvistik xususiyatlar tarjimaning to‘g‘ri talqin qilinishini, xalqaro standartlarga mosligini va tarjima auditoriyasi tomonidan to‘g‘ri qabul qilinishini ta’minlovchi muhim omillardan biridir. Ekstralingvistik xususiyatlar lingvistik bo‘lmagan elementlarni qamrab olib, *matnning iqtisodiy, huquqiy, madaniy, sotsiolingvistik* va *kommunikativ kontekstlarini* o‘z ichiga oladi. Bu jihatlar moliyaviy-iqtisodiy tarjima jarayonida semantik va pragmatik tafovutlarni aniqlash, terminlarning aniq ekvivalentini topish va matnni auditoriya ehtiyojlariga moslashtirish kabi muhim vazifalarni bajaradi.

Ekstralingvistik xususiyatlarning asosiy yo‘nalishlari:

1. Moliyaviy-iqtisodiy va huquqiy kontekst. Moliyaviy - iqtisodiy matnlarning tarjimasida iqtisodiy tizimlar va huquqiy me’yorlarning milliy va xalqaro tafovutlari e’tiborga olinishi zarur. Bu holat, xususan, xalqaro moliyaviy hisobot standartlari (IFRS) hamda umume’tirof etilgan buxgalteriya hisob prinsiplari (GAAP) kabi xalqaro Moliyaviy-iqtisodiy me’yorlar, shuningdek, mahalliy normativ-huquqiy tartibga solish qoidalari bo‘yicha matnlarni tarjima qilish jarayonida alohida ahamiyat kasb etadi. Misol: *“According to SEC regulations, all publicly traded companies must disclose their financial statements quarterly”.* Tarjimasi: *“AQSh Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi (SEC) qoidalariga ko‘ra, aksiyalari ommaviy muomalada bo‘lgan kompaniyalar har chorakda Moliyaviy-iqtisodiy hisobotlarini e’lon qilishlari shart”.* AQSh Qimmatli qog‘ozlar va birjalar komissiyasi *SEC* milliy tartibga soluvchi organ bo‘lib, boshqa davlatlar uchun matnda uning funksional ekvivalenti yoki umumiy *“qimmatli qog‘ozlar bo‘yicha nazorat organi”* termini qo‘llaniladi.

2. Madaniy va mintaqaviy tafovutlar. Moliyaviy-iqtisodiy terminlarning mintaqaviy tafovutlari borligi sababli, har bir til va madaniyatga mos keluvchi ekvivalent tanlash muhim. Ayrim moliyaviy-iqtisodiy tushunchalar yoki terminlar ba’zi mamlakatlarda mavjud bo‘lmasa, ularni izohlash yoki mos alternativ topish talab qilinadi. *“Black Friday”* termini dastlab 1960-yillarda Filadelfiya shahar politsiyasi tomonidan shukronalik kunidan keyingi juma kunida kuzatiladigan keskin transport tirbandliklari va do‘konlar oldidagi odamlar oqimini ifodalash uchun ishlatilgan [Smith, 2016]. Bu davrdagi konnotatsiya salbiy bo‘lib, *“qora”* so‘zi kunning tartibsizliklar, haddan ziyod gavjumlik va xizmat jarayonining og‘irligi bilan bog‘liq bo‘lgan. AQSh buxgalteriya amaliyotida zarar ko‘rsatkichlarini *qizil siyoh* bilan, foyda ko‘rsatkichlarini esa *qora siyoh* bilan belgilash an’anasi XIX asr oxirlarida shakllangan [Connor, 2004]. Bu usulning asosiy sababi shundaki, qizil siyoh matnda aniq ajralib turadi va moliyaviy hisobotlarda salbiy balansni tezda ko‘rsatish imkonini beradi, qora siyoh esa oddiy yozuv rang bo‘lib, ijobiy ko‘rsatkichlarni bildiradi. Shu sababli *“to be in the red” (zararda bo‘lish)* va *“to be in the black” (foydada bo‘lish*) iboralari ingliz tilida keng tarqalgan metaforalarga aylangan. Shu asosda *“Black Friday”* savdo korxonalari yil davomida zarar ko‘rsatkichlaridan foyda ko‘rsatkichlariga o‘tadigan sana sifatida talqin qilina boshladi. Ushbu termin AQSh savdo madaniyatiga xos bo‘lgani sababli uni to‘g‘ridan to‘g‘ri *“Qora juma”* tarzida berish yetarli ma’no bermasligi mumkin. Shu bois *“Shukronalik kunidan keyingi yirik chegirma kuni* (*Black Friday*)*”* *“Barokatli juma”* yoki *“AQShdagi yillik katta chegirma kuni”* kabi izohli ekvivalentlar mada-

niy moslik va semantik aniqlikni ta’minlaydi. Misol: *“Black Friday discounts significantly impact consumer behavior in the U.S.”* [Oxford English dictionary, 2022]. Tarjima: *“AQShda ‘Black Friday’ chegirmalari iste’molchilar xatti-harakatiga sezilarli ta’sir ko‘rsatadi”.*

3. Sotsiolingvistik xususiyatlar – auditoriyaning bilim darajasi. Moliyaviy - iqtisodiy matnlar turli auditoriyalarga mo‘ljallangan bo‘lishi mumkin: mutaxassislar uchun tayyorlangan matnlarda texnik terminlar saqlanishi mumkin, umumiy auditoriya uchun esa tushunarli shaklda izohlash talab etiladi. Misol: *“Hedging is an essential strategy for mitigating currency risk in international trade”.* Tarjima (mutaxassislar uchun): *“Hedjlash xalqaro savdoda valyuta xavfini kamaytirish uchun muhim strategiyadir”.* (Umumiy auditoriya uchun): *“Xalqaro savdoda valyuta kurslarining o‘zgarishidan kelib chiqadigan xavfni kamaytirish uchun maxsus Moliyaviy-iqtisodiy himoya strategiyalari qo‘llaniladi”.* Mutaxassislar uchun terminologik aniqlik muhim bo‘lsa, umumiy auditoriya uchun izoh bilan ifodalash samaraliroq bo‘ladi.

4. Pragmatik moslashuv: kommunikativ ta’sirni saqlash. Moliyaviy - iqtisodiy matnning tarjimasi uning pragmatik xususiyatlarini yo‘qotmasligi kerak. Matn tarjima auditoriyasi tomonidan qanday qabul qilinishini hisobga olish lozim. Misol: *“We are thrilled to report record-high profits this quarter!”* (so‘zma-so‘z tarjima, mos emas): *“Biz ushbu chorakda rekord darajadagi foydani e’lon qilishdan hayajondamiz!”* (pragmatik moslashuv bilan): *“Ushbu chorakda kompaniyamiz yuqori darajadagi foydaga erishganini mamnuniyat bilan e’lon qilamiz”.* Moliyaviy - iqtisodiy matnlar rasmiy uslubga ega bo‘lgani sababli *“hayajondamiz”* kabi so‘zlar mos kelmaydi. O‘zbek tilida *“mamnuniyat bilan e’lon qilamiz”* kabi rasmiy ifodalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

5. Xalqaro Moliyaviy-iqtisodiy standartlar va huquqiy moslashuv. Xalqaro moliyaviy - iqtisodiy matnlarni tarjima qilishda IFRS, GAAP kabi standartlar va ularning tarjima matni auditoriyasidagi ekvivalentlarini to‘g‘ri tanlash zarur. Misol: *“The financial statements must comply with IFRS 15 revenue recognition standards”.* Tarjimasi: *“Moliyaviy-iqtisodiy hisobotlar IFRS 15 daromadlarni e’tirof etish standartlariga muvofiq tayyorlanishi kerak”.* IFRS xalqaro Moliyaviy-iqtisodiy standart bo‘lib, u boshqa mamlakatlarda ham shu shaklda qoldirilishi mumkin. Shu bilan birga, *“daromadlarni e’tirof etish standarti”* so‘z birikmasi aniq va tushunarli qilib tarjima qilingan.

Ekstralingvistik xususiyatlar moliyaviy - iqtisodiy matnlarni to‘g‘ri talqin qilish va tarjima auditoriyasiga moslash uchun zarur bo‘lgan omillardir. Ushbu omillar hisobga olinmasa, tarjima noto‘g‘ri qabul qilinishi, mantiqiy bog‘lanish yo‘qolishi yoki pragmatik tafovutlar yuzaga kelishi mumkin. Moliyaviy - iqtisodiy matnlarning tarjimasi lingvistik moslik bilan cheklanmay, iqtisodiy va huquqiy farqlar, madaniy kontekst, auditoriyaning bilim darajasi va kommunikativ strategiyalarni ham hisobga olishni talab qiladi. Shu sababli ekstralingvistik tahlil moliyaviy-iqtisodiy tarjimalarning aniq, izchil va kontekstual mosligini ta’minlaydigan muhim omil hisoblanadi.

6. Matn janri va uning tarjimaga ta’siri. Moliyaviy - iqtisodiy matnlar turli janrlarga bo‘linadi va har bir janr o‘ziga xos lingvistik hamda ekstralingvistik talablarga ega. Ilmiy maqolalar aniq terminologik ekvivalentlikni talab qilsa, amaliy moliyaviy-iqtisodiy hujjatlar, masalan, kredit shartnomalari yoki auditorlik hisobotlari, soddalashtirilgan, auditoriyaga moslashtirilgan tarjima shaklini olishi mumkin. Misol: *“The financial market volatility index fluctuated by 25% between 2010 and 2020, significantly impacting the rate of economic growth”* (Ilmiy maqolaga mos tarjima): *“2010-yildan 2020-yilgacha moliyaviy-iqtisodiy bozorning beqarorlik indeksida 25% atrofida tebranishlar kuzatildi, bu esa iqtisodiy o‘sish sur’atlariga sezilarli ta’sir ko‘rsatdi”.* (Ilmiy ma’ruzaga mos tarjima): *“So‘nggi yillarda Moliya bozorlaridagi o‘zgaruvchanlik iqtisodiy barqarorlikka ta’sir ko‘rsatmoqda”.* Ilmiy maqolada texnik terminologiya saqlanib qoladi, chunki uning tarjima matni auditoriyasi moliyaviy-iqtisodiy mutaxassislardir. Ma’ruzada esa matn soddalashtirilib, tushunarli shaklda ifodalanadi. Bu matn janrining tarjima jarayoniga bevosita ta’sirini ko‘rsatadi.

7. Auditoriya ehtiyojlari va tarjima strate-

giyasi. Tarjima jarayonida auditoriya ehtiyojlari va bilim darajasini hisobga olish pragmatik moslikni ta'minlashning muhim omilidir. Pragmatik moslik tarjima matnining maqsadli auditoriyada asliyat matn bilan teng kommunikativ ta'sir uyg'otish qobiliyatidir. Mutaxassislarga mo'ljallangan matnlarda texnik terminologiya saqlanadi, chunki bunday auditoriya ushbu terminlarning mazmunini tushunadi va aniqlik talab etadi. Keng auditoriya uchun esa matn soddalashtiriladi, tushuntirish beriladi yoki murakkab terminlar funksional ekvivalentlar bilan almashtiriladi. Misol: *"Fiscal stimulus can counteract the negative effects of economic recession"*. Mutaxassislarga mo'ljallangan tarjima: *"Fiskal rag'batlantirish iqtisodiy retsessiya salbiy ta'sirlarini bartaraf etishi mumkin"*. Keng auditoriya uchun tarjima: *"Davlat xarajatlarini oshirish yoki soliqni kamaytirish orqali iqtisodiy inqirozning salbiy oqibatlarini yumshatish mumkin"*. Mutaxassislarga mo'ljallangan tarjimada texnik terminlar saqlanib qoladi, chunki ushbu auditoriya ularni tushunishga qodir. Keng auditoriya uchun esa tushuntirish berilib, jumla soddalashtiriladi.

Ta'kidlashimiz joizki, tarjimada sotsiolingvistik omillar, pragmatik moslashuv, auditoriya ehtiyojlari va diskursiv strategiyalar kabi ekstralingvistik omillar tarjimaning semantik aniqligi va funksional ekvivalentligini ta'minlovchi muhim determinantlar sifatida namoyon bo'ladi. Ushbu jihatlar matnning kontekstual uyg'unligi, xalqaro standartlarga muvofiqligi va kommunikativ samaradorligini shakllantirishda hal qiluvchi ahamiyat kasb etib, tarjima jarayonining lingvistik va pragmatik tafovutlarni hisobga olgan holda izchil ifodalanishini ta'minlaydi.

1. *Iqtisodiy metaforalar va ularning talqini.* Moliyaviy - iqtisodiy matnlarda ko'p metaforalar va obrazli iboralar qo'llaniladi. Ularni so'zma-so'z tarjima qilish matnning tushunarliligiga zarar yetkazishi mumkin, shuning uchun ularning iqtisodiy kontekstdagi ma'nosini to'g'ri talqin qilish muhim. Misol: *"The economy is overheating due to excessive credit expansion"* (so'zma-so'z tarjima, noto'g'ri): *"Iqtisodiyot ortiqcha kredit kengayishi tufayli qizib ketmoqda"*. (Moslashtirilgan tarjima): *"Kredit bozorining haddan tashqari kengayishi iqtisodiyotda ortiqcha bosim yuzaga keltirmoqda"*. "So'zma-so'z tarjima" iqtisodiy kontekstni aks ettira olmaydi. *"Overheating"* so'zi iqtisodiy jargonda inflyatsiyaning nazoratdan chiqishini bildiradi, bu esa tarjimada to'g'ri aks ettirilishi lozim.

2. *Moliyaviy-iqtisodiy terminlarning terminologik barqarorligi.* Ba'zi Moliyaviy-iqtisodiy terminlar xalqaro standartda qo'llanilsa ham, ularning tarjima qilinishi yoki aynan qoldirilishi muhim masala hisoblanadi. Bu ayniqsa xalqaro hujjatlar va hisobotlarda ahamiyatli. Misol: *"Return on Investment (ROI) has improved"*. UZ (noto'g'ri): *"Investitsiyadan olinadigan daromad yaxshilandi"*. UZ (to'g'ri, xalqaro termin saqlangan holda): *"ROI (Return on Investment) ko'rsatkichi yaxshilandi"*. Ba'zi moliyaviy-iqtisodiy terminlar, masalan, ROI (Return on Investment), EBITDA (Earnings Before Interest, Taxes, Depreciation, and Amortization) kabi iboralar xalqaro darajada tushuniladi. Ularni tarjima qilish o'rniga, izoh bilan qoldirish ko'proq samarali bo'lishi mumkin.

3. *Stilistik va rasmiy til darajasi.* Moliyaviy - iqtisodiy matnlarning tarjimasida rasmiy nutq uslubi saqlanishi kerak. Ba'zi tillarda rasmiy va norasmiy stilistik daraja farq qiladi, bu esa tarjimada moslashishni talab qiladi. Misol: *"We are pleased to announce our company's merger with XYZ Corporation"*. (Erkin tarjima): *"Biz XYZ korporatsiyasi bilan qo'shilayotganimizdan xursandmiz"*. (To'g'ri, rasmiy uslubda): *"Kompaniyamizning XYZ korporatsiyasi bilan birlashayotganini mamnuniyat bilan e'lon qilamiz"*. Tahlil: "O'zbek rasmiy uslubida" korporativ bayonotlar hissiy ohang bilan emas, balki diplomatik va neytral tilda ifodalanadi. Shu sababli *"pleased to announce"* so'z birikmasi *"mamnuniyat bilan e'lon qilamiz"* shaklida moslashtirilgan.

4. *Lingvistik tejamkorlik va qisqartmalarni moslashtirish. Moliyaviy- iqtisodiy matnlarda qisqartmalari hamda ixtisoslashgan terminlardan keng foydalanilgan.* Biroq ularni so'zma so'z tarjima qilish yoki izohsiz qo'llash matn mazmunining noto'g'ri talqin qilinishiga olib keladi. Shu sababli tarjima jarayonida qisqartmalarni kontekstga mos holda izohlash yoki ularga mos milliy ekvivalentlardan foydalanish tarjimaning aniqligi va kommunikativ sama-

radorligi sezilarli darajada oshiradi. Misol: *"The company adheres to AML policies to prevent financial crimes"*. (So'zma-so'z tarjima): *"Kompaniya moliyaviy jinoyatlarning oldini olish uchun AML siyosatiga rioya qiladi"*. (Moslashtirilgan): *"Kompaniya moliyaviy-iqtisodiy jinoyatlarning oldini olish uchun pul yuvishga qarshi choralar (AML) siyosatiga rioya qiladi"*. Tahlil: "AML" (*Anti-Money Laundering*) xalqaro moliyaviy-iqtisodiy tizimda keng qo'llaniladi, biroq o'zbek o'quvchilari uchun tushunarli bo'lishi uchun "Pul yuvishga qarshi choralar" sifatida ochib berildi. Shu tariqa qisqartma avval tushuntirildi, keyin esa qisqartma qavs ichida qoldirildi.

Moliyaviy-iqtisodiy matnlarda uchraydigan qisqartmalarni tarjima jarayonida tushunarli tarzda izohlash yoki ularni milliy terminologiyadagi muqobillar bilan almashtirish tarjimaning bevosita aniqligi va to'g'riligini ta'minlaydi. Chunki har bir auditoriya barcha qisqartmalar mazmunidan xabardor bo'lmaganligi bois tarjimon ularni matn kontekstidan kelib chiqqan holda ochib berishi yoki milliy ekvivalentlar bilan ifodalashi zarur. Mazkur yondashuv matnning semantik aniqligini oshirish bilan birga, uning xalqaro moliyaviy-iqtisodiy standartlarga mos va kommunikativ jihatdan samarali bo'lishiga xizmat qiladi.

XULOSA

Yuqorida keltirilgan ma'lumotlarga asoslanib xulosa qilganda, moliyaviy – iqtisodiy matnlar tarjima qilish jarayonida ekstralingvistik omillar muhim va hal qiluvchi o'rin tutadi. Aynan shu omillar tarjimaning kontekstga mosligini, xalqaro moliyaviy iqtisodiy me'yor va standartlarga muvofiqligini hamda uning kommunikativ samaradorligini belgilab beradi. Huquqiy, iqtisodiy, madaniy, sotsiolingvistik va pragmatik jihatlarni e'tiborga olish tarjimada nafaqat semantik aniqlikni ta'minlaydi, balki auditoriya ehtiyojlariga mos, tushunarli va mantiqan izchil matn yaratishga xizmat qiladi. Demak, lingvistik unsurlar bilan bir qatorda ekstralingvistik xususiyatlarning uyg'unligi yuqori sifatdagi moliyaviy – iqtisodiy matnlar tarjimani amalga oshirishning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

REFERENCES

1. Almanna, A. (2013). Extra-linguistic constraints & parameters in the translation process: A descriptive study. World Journal of English Language, 3(3), 27–36.
2. Ganiyeva, M. (2024). Functional and equivalent aspects of translation of internet neologisms in English and Uzbek languages. Ethiopian International Journal of Multidisciplinary Research, 11(3), 90–93.
3. Garbovskiy, N. K. (2007). Teoriya perevoda. Moskva: Izdatelstvo Moskovskogo gosudarstvennogo universiteta.
4. Hatim, B., & Mason, I. (1990). Discourse and the translator. UK: Longman.
5. Hatim, B., & Mason, I. (1997). The translator as communicator. London: Routledge.
6. Iskandarova, Sh. (1999). O'zbek tili leksikasini mazmuniy maydon sifatida o'rganish (shaxs mikromaydoni) (Doctoral dissertation abstract). Toshkent.
7. Kalish, E. E. (2013). Teoreticheskie problemy rekonstruktsii diskursa v tselyakh perevoda (Candidate dissertation). Irkutsk.
8. Lasswell, H. D. (1971). The structure and function of communication in society. In W. Schramm & D. F. Roberts (Eds.), The process and effects of mass communication. Urbana: University of Illinois Press.
9. Nida, E. A. (1964). Toward a science of translating: With special reference to principles and procedures involved in Bible translating. Leiden: Brill.
10. Nord, C. (1997). Translating as a purposeful activity: Functionalist approaches explained. London: Routledge.
11. Nord, C. (2005). Text analysis in translation: Theory, methodology, and didactic application of a model for translation-oriented text analysis. Leiden, Netherlands: Rodopi.
12. O'Connor, M. C. (2004). Red ink and black ink: Color metaphors in accounting. Accounting Historians Journal, 31(2), 55–78.

13. Oxford English Dictionary. (2022). In the red; in the black. Oxford: Oxford University Press.
14. Safarov, Sh. S. (2016). Funksional-semantik maydonlar va ularning lingvistik tahlili. Filologiya masalalari, (3), 34–42.
15. Schäffner, C. (1997). Translation and norms. Bristol, UK: Multilingual Matters.
16. Smith, J. (2016). The history of Black Friday. Journal of Retail History, 12(4), 45–59.
17. Teshaboyeva, Z. Q. (2019). Madaniyatlararo kommunikatsiyada ekstralingvistik tafovutlar. Filologiya masalalari, (2), 63–69.
18. Turaboyeva, P. A. (1979). Ingliz tilidan o‘zbek tiliga tarjimalarda pragmatikaning lingvistik ahamiyati. O‘zbek tili va adabiyoti, (5), 64–65.
19. Vermeer, H. J. (1989). Skopos and commission in translational action. In A. Chesterman (Ed.), Readings in translation theory. Helsinki: Oy Finn Lectura Ab.
20. Yusupov, O. Ya. (2020). Ingliz va o‘zbek tillaridagi leksik dubletlarning funksional-semantik va lingvokulturologik tadqiqi (Doctoral dissertation abstract). Samarqand.